



## THE ROLE OF MUSEUMS IN ENHANCING THE INTELLECTUAL AND SPIRITUAL POTENTIAL OF THE LOCAL POPULATION

**Mahbuba Akhtamovna Ashurova**

*Employee of the Museum of Victims of Repression under the structure of BukhSU*

*Independent Researcher at the Department of History of Islam, Source Studies, and Philosophy*

Email: [maxbubaaxtamovna@gmail.com](mailto:maxbubaaxtamovna@gmail.com)

Science ID: FBX-0826-0092

Bukhara, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Human capital, intercultural, ecological consciousness, mass culture, civic identification, constructive dialogue.

**Received:** 09.09.26

**Accepted:** 10.09.26

**Published:** 11.09.26

**Abstract:** The article discusses the role of museums in the development of human capital, their significance in regional development, and the formation of the intellectual infrastructure of society. It analyzes the unique mediating role of museums in transmitting the experience of the older generation, historical memory, and cultural knowledge to the younger generation, their function as an important cultural and educational center in developing regional human capital, and the overall impact of museums on human capital.

## МУЗЕЙЛАРНИНГ МАҲАЛЛИЙ АҲОЛИНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ВА МАЪНАВИЙ САЛОҲИЯТИНИ ОШИРИШДАГИ РОЛИ

**Махбуба Ахтамовна Ашурова**

*БухДУ тузилмасидаги Қатагон қурбонлари хотираси музейи ходими*

*Ислом тарихи ва манбаишунослиги, фалсафа кафедраси мустақил тадқиқотчиси*

Email: [maxbubaaxtamovna@gmail.com](mailto:maxbubaaxtamovna@gmail.com)

Илмий идентификация рақами: FBX-0826-0092

Бухоро, Ўзбекистон

### МАҚОЛА ҲАҚИДА

|                                       |                |                                  |                             |                 |
|---------------------------------------|----------------|----------------------------------|-----------------------------|-----------------|
| <b>Калит</b>                          | <b>сўзлар:</b> | <b>инсон</b>                     | <b>Аннотация:</b>           | <b>Мақолада</b> |
| капитали, интеркултурал,              | экологик онг,  | музейларнинг инсон               | капиталини                  |                 |
| оммавий маданият,                     | фуқаролик      | ривожлантиришдаги ўрни,          | уларнинг                    |                 |
| идентификацияси, конструктив мулоқот. |                | худудий ривожланиш ва жамиятнинг | интеллектуал                |                 |
|                                       |                | инфратузилмасини                 | шакллантиришдаги аҳамиятига | тўхталиб        |

ўтилади. Катта авлод тажрибаси, тарихий хотира ва маданий билимларни ёш авлодга етказишда музейларнинг ўзига хос воситачи эканлиги, музейлар ҳудудий инсон капиталини ривожлантиришда муҳим маданий-таълимий марказ вазифасини бажариши, музейларнинг инсон капиталига таъсири таҳлил қилинади.

## РОЛЬ МУЗЕЕВ В ПОВЫШЕНИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО И ДУХОВНОГО ПОТЕНЦИАЛА МЕСТНОГО НАСЕЛЕНИЯ

**Махбуба Ахтамовна Ашурова**

*Сотрудник Музея памяти жертв репрессий в структуре БухГУ*

*Независимый исследователь кафедры истории ислама и источниковедения, философии*

*Email: [maxbubaaxtamovna@gmail.com](mailto:maxbubaaxtamovna@gmail.com)*

*Научный идентификационный номер: FBX-0826-0092*

*Бухара, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** человеческий капитал, интеркультурный, экологический менталитет (сознание), массовая культура, гражданская идентификация, конструктивный диалог.

**Аннотация:** В статье рассматривается роль музеев в развитии человеческого капитала, их значение в региональном развитии и формировании интеллектуальной инфраструктуры общества. Анализируются такие аспекты, как особая роль музеев в качестве посредника в передаче опыта старшего поколения, исторической памяти и культурных знаний подрастающему поколению, выполнение ими функции важного культурно-образовательного центра в развитии регионального человеческого капитала, а также влияние музеев на человеческий капитал.

**Kirish.** Muzei ekspozitsiyalari orqali milliy tarix, davlatchilik an'analari, ma'naviy meros va madaniy tajribalar tizimli ravishda namoyon etilar ekan, insonda o'zlikni anglash va ma'naviy tayanch shakllanadi. Bu tayanch inson kapitalini turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qiluvchi omil sifatida xizmat qiladi. Yangi O'zbekistonda milliy g'oya va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish siyosati muzei faoliyatida o'z ifodasini topayotgani inson kapitalida sog'lom dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Katta avlod tajribasi, tarixiy xotira va madaniy bilimlarni yosh avlodga yetkazishda muzeilar o'ziga xos vositachi vazifasini bajaradi. Bu jarayon inson kapitalida davoimiylik, vorisiylik va javobgarlik tuyg'usini shakllantiradi. Avlodlar

o'rtasidagi uzviylik esa jamiyat taraqqiyotining barqarorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega bo'lib, unda analiz, sintez, umumlashtirish, dialektik, tizimli, aksiologik, institutsional, strukturaviy-funksional va komparativ tahlil, tarixiylik, metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muzey ekspozitsiyalari orqali milliy tarix, davlatchilik an'analari va ma'naviy merosning targ'ib qilinishi insonda o'zlikni anglash hamda mafkuraviy tahdidlardan himoyalovchi ma'naviy tayanchini shakllantiradi. Bu borada mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning asarlarida milliy g'oya va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali sog'lom dunyoqarashni barpo etish masalalari chuqur yoritilgan. Muzeylar orqali inson o'z yashab turgan hududining tarixi, iqtisodiy va madaniy taraqqiёti haqida chuqur bilimga ega bo'ladi. Bu jarayon fuqarolarda mahalliy identifikatsiya, hududiy iftixor va jamiyat rivojiga daxldorlik tuyg'ularini kuchaytiradi. Kazakov B. o'zining Buxoro muzey-qo'riqxonasi hujjatlari va tarixiy kolleksiyalariga bag'ishlangan tadqiqotlarida hududiy tarixni o'rganishning ma'naviy-intellektual ahamiyatini ochib bergan.

**Muhokama.** Muzeylarning inson kapitaliga ta'sirini tahlil qilishda ularning mediamarafit va axborot madaniyatini shakllantirishdagi o'rnini ham qayd etish lozim. Zamonaviy muzeylar axborotni faqat taqdim etuvchi emas, balki uni tanqidiy qabul qilishga o'rgatuvchi makonga aylanmoqda. Ekspozitsiyalarning ilmiy asoslanganligi, manbalar bilan ishlash uslubi insonda axborotni tahlil qilish, soxta ma'lumotlardan farqlash va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa inson kapitalida axborot savodxonligining oshishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy birdamlik va bag'rikenglikni mustahkamlovchi omil sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Turli millatlar, dinlar va madaniy guruhlar tarixining muzey ekspozitsiyalarida aks ettirilishi insonda o'zaro hurmat, tolerantlik va muloqot madaniyatini shakllantiradi.

Yangi O'zbekiston ko'p millatli jamiyat sifatida aynan shu qadriyatlarga tayangan holda taraqqiy etayotgan ekan, muzeylar inson kapitalidagi interkultural barqarorlikni ta'minlovchi muhim madaniy resurs hisoblanadi. Muzeylarning inson kapitaliga qo'shadigan hissasi ularning krizis va ijtimoiy o'zgarishlar davrida jamiyatni ma'naviy qo'llab-quvvatlash funksiyasi orqali ham namoyon bo'ladi. Ijtimoiy beqarorlik, iqtisodiy qiyinchilik yoki global xavf-xatarlar sharoitida tarixiy tajribaga murojaat qilish insonda sabr, umid va barqarorlikni shakllantiradi. Muzeylar ana shu tarixiy tajribani jamiyatga yetkazib, inson kapitalida psixologik chidamlilikni mustahkamlaydi.

Muzeylarning inson kapitalini rivojlantirishdagi ahamiyati ularning ma'naviy targ'ibot bilan bog'liq faoliyatida ham yaqqol ko'rinadi. Madaniy-ma'rifiy loyihalar, tematik ko'rgazmalar,

tarixiy sana va voqealarga bag'ishlangan tadbirlar insonda jamiyat hayotiga befarq bo'lmaslik, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Bu fazilatlar inson kapitalining ijtimoiy samaradorligini oshiradi. Muzeylar inson kapitalini rivojlantirishda ma'naviy xavfsizlik, axborot madaniyati, ijtimoiy birdamlik va psixologik barqarorlikni ta'minlovchi muhim ijtimoiy-falsafiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jihatlar Yangi O'zbekistonda inson omilini markazga qo'ygan taraqqiyot strategiyasining madaniy asoslarini mustahkamlaydi.

Muzeylarning inson kapitalini rivojlantirishdagi o'rnini yanada chuqur anglash uchun ularning ijtimoiy kommunikatsiya va jamoat fikrini shakllantirishdagi funksiyasiga e'tibor qaratish zarur. Zamonaviy jamiyatda inson kapitali nafaqat shaxsiy bilim va ko'nikmalar bilan, balki jamoat fikrida ishtirok etish, ijtimoiy pozitsiyani ifodalash va konstruktiv muloqot olib borish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Muzeylar aynan shu jarayonda jamoatchilik muloqoti uchun ochiq, betaraf va ma'rifiy makon sifatida xizmat qiladi.

Muzey ekspozitsiyalari va tadbirlari insonni faol mulohaza yuritishga, tarixiy va zamonaviy voqealarni qiyosiy tahlil qilishga undaydi. Ekspонатlar orqali berilgan axborot insonda savol qo'yish, bahs qilish va dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish madaniyatini shakllantiradi. Bu esa inson kapitalida demokratik tafakkur, fikrlar xilma-xilligiga hurmat va muloqot etikasi kabi muhim ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantiradi. Kommunikatsion roli ularda tashkil etiladigan ochiq muloqotlar, davra suhbatlari va jamoatchilik muhokamalari orqali ham namoyon bo'ladi. Bunday tadbirlar insonlarni turli nuqtai nazarlar bilan tanishishga, o'zaro fikr almashishga va umumiy xulosaga kelishga o'rgatadi. Bu jarayon inson kapitalining ijtimoiy muvofiqlashuv va konsensusga erishish qobiliyatini oshiradi.

Muzeylar inson kapitalida fuqarolik identifikatsiyasini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Tarixiy jarayonlar, milliy davlatchilik taraqqiyoti va jamiyatdagi islohotlarning muzey ekspozitsiyalarida aks ettirilishi insonda davlat va jamiyat taqdiriga daxldorlik tuyg'usini mustahkamlaydi.[4.28-29] Bu esa fuqarolik mas'uliyati, qonunga hurmat va ijtimoiy faollik kabi fazilatlarni rivojlantiradi.

Muzeylarning inson kapitalini rivojlantirishdagi ta'siri ommaviy madaniyat bilan munosabati orqali ham ko'rinadi. Zamonaviy muzeylar ommaviy madaniyat elementlaridan foydalangan holda tarixiy va madaniy mazmunni jozibali shaklda taqdim etmoqda. Bu insonda axborotni to'g'ri qabul qilish, mazmun bilan shaklni farqlash va madaniy mahsulotlarni ongli ravishda iste'mol qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu tariqa muzeylar inson kapitalida madaniy tanlov madaniyatini shakllantiradi.

**Natijalar.** Muzeylarning inson kapitalini rivojlantirishdagi roli ularning jamiyatda ijtimoiy tenglikni qo'llab-quvvatlash funksiyasi bilan ham bog'liq. Turli ijtimoiy guruhlar uchun ochiq

bo'lgan muzey muhiti insonlarda o'zini jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida his etishga yordam beradi. Bu tuyg'u inson kapitalida ijtimoiy ishonch va jamiyatga integratsiya darajasini oshiradi. Muzeylarning inson kapitaliga ta'siri ularning ekologik ongni shakllantirishdagi faoliyati orqali ham namoyon bo'ladi. Tabiat, ekologiya, barqaror rivojlanish mavzulariga bag'ishlangan ko'rgazmalar insonda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi. Ekologik ong esa zamonaviy inson kapitalining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va kelajak avlodlar manfaatini hisobga olgan holda qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Muzeylar inson kapitalini rivojlantirishda ijtimoiy innovatsiyalar uchun platforma vazifasini ham bajaradi. Turli ijtimoiy loyihalar, madaniy tashabbuslar va fuqarolik aksiyalari muzey maydonlarida amalga oshirilib, insonlarni ijtimoiy muammolarni hal etishga jalb qiladi. Bu jarayon inson kapitalining ijtimoiy tashabbuskorlik va liderlik qobiliyatlarini oshiradi.[3.58-59]

Umuman olganda, muzeylar inson kapitalini rivojlantirishda ijtimoiy kommunikatsiya, jamoat fikri, fuqarolik identifikatsiyasi va ijtimoiy innovatsiyalarni uyg'un holda shakllantiruvchi madaniy institut sifatida namoyon bo'ladi. Bu jihatlar Yangi O'zbekistonda ochiq jamiyat va faol fuqarolik modelini rivojlantirishda muzeylar faoliyatining muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Muzeylarning inson kapitalini rivojlantirishdagi o'rni yanada kengroq tahlil qilish uchun ularning hududiy rivojlanish va jamiyatning intellektual infratuzilmasini shakllantirishdagi ahamiyatiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Inson kapitali faqat alohida shaxslar yoki muayyan guruhlar doirasida emas, balki muayyan hudud, shahar yoki mamlakat miqyosida shakllanadigan ijtimoiy resurs sifatida ham namoyon bo'ladi. Muzeylar aynan shu hududiy inson kapitalini rivojlantirishda muhim madaniy-ta'limiy markaz vazifasini bajaradi.

Hududiy muzeylar mahalliy aholining intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Ular orqali inson o'z yashab turgan hududining tarixi, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti haqida chuqur bilimga ega bo'ladi. Bu esa insonda mahalliy identifikatsiya, hududiy iftixor va jamiyat rivojiga daxldorlik tuyg'usini shakllantiradi[5.72-79]. Yangi O'zbekistonda hududlar kesimida muzeylar faoliyatini rivojlantirish siyosati inson kapitalini mamlakat bo'ylab barqaror taqsimlashga xizmat qilmoqda.

**Xulosa.** Muzeylar shahar muhitini intellektual va madaniy jihatdan boyitishda ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy shaharlar faqat iqtisodiy markaz emas, balki bilim va madaniyat makonlari sifatida ham rivojlanmoqda. Muzeylar shahar aholisi uchun ma'naviy dam olish, bilim olish va ijtimoiy muloqot qilish imkonini beruvchi muhitni yaratadi. Bu esa shahar inson kapitalining sifat jihatidan o'sishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлати-ни биргаликда барпо етамиз / Ўзбекистон Республикаси Президенти лавози-мига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палатала-трининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
3. Еременко Й.Д. Виртуальная реальность как феномен науки, техники и культуры // Доклады Всероссийского симпозиума. – Санкт-Петербург: 1995.
4. Зоитов Т. Музейлар –тарихимиз кўзгуси // Мозийдан садо. – Тошкент, 2000. - №1-2 (56).
5. Казаков Б. Коллекция исторических документов Бухарского государственного архитектурно-художественного музея-заповедника// Из истории культурного наследия Бухары. Выпуск №1. -Ташкент: «Узбекистан», 1990 г. с.62-79.
6. Странский З. Понимание музееведения // Музееведение. Музеи мира: Сб.науч.тр. НИИ культуры. – Москва, 1991.
7. Бекмуродов М.Б, Рашидов М.Х. Музейшунослик. – Тошкент: 2006.